



The institution of "public notification of court proceedings through mass media" in administrative litigation

Makhmud ESHIMBETOV¹

Judge of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2025
Received in revised form
15 July 2025
Accepted 15 July 2025
Available online
25 August 2025

Keywords:

court proceedings,
third party,
interested person,
dispute,
administrative-legal dispute,
defendant,
decision,
court of first instance,
appellate (cassation) court,
review,
substantive law,
procedural law,
preparation for the court
hearing,
objective reason,
subjective reason,
inaccuracy,
informing about the court
process through mass
media.

ABSTRACT

This article analyzes the necessity of a new, modern mechanism called "public notification of court proceedings through mass media." This mechanism serves two purposes: firstly, to properly inform persons involved in administrative cases initiated on collective claims about the time and place of court sessions; and secondly, to involve other interested parties in cases where the court proceedings may affect the interests of unspecified individuals.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss4-pp51-57>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ PhD, Independent researcher, Supreme School Judges with the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan, Judge of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. E-mail: lawyerdar72@gmail.com

Ma'muriy sud ishlarini yuritishda "sud jarayoni haqida ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qilish" instituti

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

sud ishi yurituvchi jarayoni,
uchinchi shaxs,
manfaatdor shaxs,
nizo, ma'muriy-huquqiy
nizo,
javobgar,
qaror,
birinchi instansiya sudi,
apellyatsiya (kassatsiya)
instansiyasi sudi,
taftish,
moddiy huquq,
protsessual huquq,
sud majlisiga tayyorlash,
obyektiv sabab,
subyektiv sabab,
haqiqiy emas,
sud jarayoni haqida
ommaviy axborot vositalari
orqali xabardor qilish.

Mazkur maqolada jamoaviy da'volar bo'yicha qo'zg'atilgan ma'muriy ishlarni ko'rish jarayonida ishda ishtirok etuvchi shaxslarni sud majlisining vaqti va joyi haqida tegishli tartibda xabardor qilish, shuningdek ishning sudla ko'rilishi nomuayyan shaxslarning manfaatlariga daxl qilgan hollarda boshqa manfaatdor shaxslarni jalb qilishning yangi, zamonaviy mexanizmi bo'lgan "sud jarayoni haqida ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qilish" instituti zarurati tahlil qilingan.

Институт «информирования о судебном процессе через средства массовой информации» в административном судопроизводстве

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

процесс судебного
разбирательства,
третье лицо,
заинтересованное лицо,
спор,
административно-
правовой спор,
ответчик,
решение,
суд первой инстанции,
суд апелляционной
(кассационной)
инстанции,
проверка,
материальное право,
процессуальное право,
подготовка к судебному
заседанию,
объективная причина,
субъективная причина,
недоверенность,
информирование о
судебном процессе через
средства массовой
информации.

В данной статье проанализирована необходимость института «информирования о судебном процессе через средства массовой информации» – нового, современного механизма уведомления, применяемого при рассмотрении административных дел, возбужденных в порядке коллективного иска. Рассмотрены вопросы надлежащего уведомления лиц, участвующих в деле, о времени и месте судебного заседания, а также привлечения других заинтересованных лиц в случаях, когда рассмотрение дела в суде затрагивает интересы неопределенного круга лиц.

Ma'lumki, uzoq yillardan buyon sud ishi yurituvchi jarayonida ishga uchinchi shaxslarni jalb etish, uning zarurat va ushbu hodisaning huquqiy mohiyati yuzasidan olimlarimiz o'z ilmiy qarashlarini bildirib kelgan.

Jumladan, D.S. Fleskor ushbu hodisaning huquqiy mohiyatini o'rganib, ish ishtirok etishga jalb etilmagan shaxslarning huquqlarini himoya qilish instituti "Sud qarorining qonuniy kuchi chegaralari doktrinasi bilan solishtirganda boshqa narsa emas" [1]ligini ta'kidlagan. "Shuni tan olish kerakki, boshqa shaxsning ishi bo'yicha qabul qilingan sud qarori faqat o'zining qonuniy kuchiga ko'ra uchinchi shaxslarning huquqlarini buzmasligi, lekin, shubhasiz, sud qarorlarini ijro etishning haqiqiy oqibatlari uchinchi shaxslarga zarar yetkazishi mumkin" [2]. Ushbu shaxslarning yagona manfaati sud qarori ijrosini to'xtatishdan iborat" [3]. Ammo, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning manfaatlari aynan buzilgan huquqni himoya qilishdan iborat. Haqiqatdan ham, nizoli vaziyatda arizachi biror-bir ma'muriy akt o'z huquqlarini buzganligidan kelib chiqib, uning harakatlari huquqlarini tiklashga qaratilgan bo'ladi. Biroq, hal qiluv qarori ijro etilishi jarayonida esa ushbu qarorning ijrosi uchinchi shaxslarga zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli ham, sudya ishni ko'rish jarayonida manfaatdor shaxslarni ham ishga jalb etgan holda ularning vajrlarini eshitishi, taqdim etilgan dalillarini tekshirishi muhimdir. Buning uchun esa ular ishga jalb etilgan bo'lishi kerak.

Uchinchi shaxslarni sud protsessida ishtirok etish uchun jalb qilish turli maqsadlarni ko'zlashi mumkin. "Ular, sud hujjatining qabul qilinishi bilan bog'liq bo'lgan uchinchi shaxslarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Bu shaxslar jarayonda o'z manfaatlarini mustaqil himoya qilish imkoniga ega bo'lishi kerak. Shu ma'noda uchinchi shaxslarni ishda ishtirok etishga jalb etish instituti tinglanish prinsipini hurmat qilishning ifodasidir" [4]. Albatta, har bir shaxs o'zlariga daxl qiluvchi qaror qabul qilinishi ehtimoli mavjud bo'lgan sud ishida qatnashishi, ishning haqiqiy holati bo'yicha o'z pozitsiyalarini bayon etib, nizoning haqiqiy holatini ifoda etishga imkon beradigan zarur dalillarni taqdim etish huquqiga ega. Bu esa ushbu shaxslarni sudya tomonidan ishga arizachi yoki javobgar tarafdin qatnashuvchi uchinchi shaxs sifatida jalb etishni taqozo etadi.

Ishda uchinchi shaxslarning ishtirok etishi sud jarayoni muddatining asossiz cho'zilib ketishining oldini oladi. Shu ma'noda u, birinchi navbatda, sud manfaatlariga xizmat qiladi. Uchinchi shaxslarning ishga jalb etilishi nizoli huquqiy munosabatlarni bir protsess doirasida hal qilish imkonini beradi va shu bilan ziddiyatli sud hujjatlari qabul qilinishining oldini oladi [5]. Albatta, manfaatdor shaxslarni ishga jalb etish, birinchi galda ishning ko'ruvchi sudyaning manfaatlariga xizmat qiladi. Chunki, sudya uchun eng muhim masala nizoli vaziyatning qonuniy yechimini topishdir.

Shu maqsadda, "sudya ishni sud muhokamasiga tayyorlash chog'ida ishda ishtirok etish uchun boshqa javobgarni yoki uchinchi shaxsni jalb etish, manfaatdor shaxslarni ishni yuritish to'g'risida xabardor qilish choralari ko'radi" [6].

Kodeksdagi ushbu qoida sudyaning huquqi emas, balki majburiyati hisoblanadi. Sudya ishni sud muhokamasiga tayyorlash jarayonida yoki to'hal qiluv qarori qabul qilgunga qadar nizo predmetiga aloqador bo'lgan, manfaatdor shaxslarni ishga jalb etish choralari ko'rish lozim.

Xo'sh, sudya protsessual qonunda belgilangan ushbu majburiyatni bajarmadi va natijada ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan shaxslarning manfaatlariga daxl qiluvchi

qaror qabul qildi. Mazkur holatda ushbu shaxslar qanday protsessual huquqlarga ega bo'ladi?

Mazkur savolga javob oddiy. Ushbu shaxslar sud qarorlari ustidan (hal qiluv qarori, qaror) apellyatsiya (kassatsiya) yoki taftish tartibida shikoyati berish huquqiga ega [7]. Albatta shu o'rinda, hal qiluv qarori qonuniyligining yuqori instansiya sudlarida ko'rib chiqilishi, avvalo birinchi instansiya sudi tomonidan ishlarni qonuniy hal etilishining kafolati sanalishini ta'kidlash lozim.

Sudya, qabul qilgan hal qiluv qarori yuqori instansiya sudlari tomonidan ko'rib chiqilishini his qilar ekan, bu esa sudyani ishni ko'rishda protsessual huquq normalariga amal qilgan holda, moddiy huquq normalarini to'g'ri qo'llab qonuniy qaror qabul qilishga undaydi. Bunga erishish uchun, avvalo arizani ish yurituviga qabul qilgan paytdan boshlab protsessual huquq normalariga amal qilib, ishni qonuniy hal etish uchun zarur bo'lgan barcha harakatlarni bajarishi kerak. Ya'ni, bu jarayon ishni sud muhokamasiga tayyorlash bosqichidan boshlanadi.

Shunga ko'ra sudya ishni sud muhokamasiga tayyorlash chog'ida ishni mazmunan to'g'ri hal etish uchun zarur bo'lgan barcha choralarni, shu jumladan ishning ko'rilishi kimning huquqlari va manfaatlariga daxl qilishini aniqlash va ularni ishga jalb etish, ishda ishtirok etuvchi shaxslarni ishni ko'rish vaqti va joyi haqida tegishli tartibda xabardor qilish kabi masalalarni hal etadi[8]. Ushbu masalalarni hal etish sudyaning keyingi jarayonlarda nizoni to'g'ri hal etilishining kafolati hisoblanadi. Shu maqsadda u "ishning ko'rilishi yana kimlarning huquqlari va manfaatlariga daxl qilishi mumkin?" – degan masalani hal etib, ularni ishga jalb etishi lozim. Demak, sud ishning sudda ko'rilishi ishda ishtirok etmayotgan biror-bir shaxslarning huquq va majburiyatlariga ta'sir qilishini aniqlasa, u holda ushbu shaxslarni ham ishga jalb qilishga majbur. Ushbu tartibning buzilishi o'z navbatida yuqori instansiya sudlari tomonidan protsessual huquq normalarining buzilishi sifatida baholanadi[9].

Xuddi shuningdek, sudya "ishda ishtirok etuvchi shaxslarni sud muhokamasining vaqti va joyi to'g'risida MSiYutKning 124-moddasi" [10] da belgilangan tartibda xabardor qilinishi lozim. Demak, tegishli tarzda xabardor qilinmagan shaxslarning ishtirokisiz ishning ko'rilishi ham o'z navbatida protsessual huquq normalarining buzilishi hisoblanadi. Shunga ko'ra, sudya ishni sud muhokamasiga tayyorlash chog'ida ishda ishtirok etish uchun manfaatdor shaxslarni ishga jalb etish masalasini hal qilib, ularni ishni yuritish to'g'risida xabardor qilishi shart.

Yuqorida bayon etilgan protsessual huquq normalarining buzilishi, garchi hal qiluv qarori ish uchun ahamiyatli barcha holatlar to'liq aniqlanib, vajlar isbotlanib, moddiy huquq normalari to'g'ri qo'llanilib qabul qilingan bo'lsa-da, sud hujjatlarining bekor bo'lishiga olib keladi.

Albatta, birinchi instansiya sudi tomonidan yuqorida qayd etilgan protsessual huquq normalarining buzilishiga ayrim hollarda subyektiv omil, ya'ni sudya tomonidan ishni sud majlisiga tayyorlash jarayonidagi mas'uliyatsizligi sabab bo'ladi. Buni hech kim inkor etmaydi.

Biroq, amaliyotda shunday holatlar ham uchraydiki, bunda sudya amaldagi protsessual tartib bo'yicha ishda ishtirok etuvchi shaxslarni obyektiv sabablarga ko'ra yoki real imkoniyatidan kelib chiqib sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilish yoki manfaatdor shaxslarni ishga jalb etish imkoniga ega bo'lmaydi.

Keling, faraz qilaylik A shaxs taftish shikoyati bilan murojaat qilib, birinchi va apellyatsiya instansiyasi sudlari tomonidan uni ishga jalb etmasdan ishni ko'rganligini, qabul qilingan sud qarori uning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxl etishini bayon qilgan. Taftish instansiyasi sudi tomonidan ishni ko'rish jarayonida shikoyatda keltirilgan vaj o'z tasdig'ini topgan. Ushbu holatda taftish instansiyasi sudi qabul qilingan sud hujjatlari moddiy huquq normalariga qanchalik muvofiq bo'lishidan qat'iy nazar, sud hujjatini bekor qilib, ishni yangidan ko'rish uchun apellyatsiya instansiya sudiga yuboradi. Bu qoida boshqa xorijiy davlatlarning protsessual qonunlarida ham o'rnatilgan.

Endi, bu vaziyatni oylar davomida birinchi, apellyatsiya instansiyasi sudlari majlislarida qatnashib, oxirgi instansiya sudigacha kelgan taraflar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqsak. Albatta, ishda ishtirok etuvchi shaxslar taftish instansiyasi sudi oxirgi instansiya ekanligini va shu bilan nizoga yakuniy yechim topilishiga umid qiladi. Biroq, yuqorida keltirilgan asoslar bo'yicha sud hujjatlarining bekor qilinib, ishni yangidan ko'rish uchun apellyatsiya instansiya sudiga yuborilishi natijasida ish dastlab boshlangan nuqtasiga qaytadi va taraflar sud instansiyalarini (apellyatsiya, taftish) yangidan bosib o'tishga majbur.

Yuqoridagi fikrlarimizda ta'kidlaganimizdek, ishning ko'rilishi haqida tegishli tartibda xabardor qilinmagan shaxslar ishtirokisiz yoki manfaatdor shaxslar ishga jalb etilmasdan ko'rilishiga nafaqat subyektiv, balki obyektiv sabablar ham bo'ladi. Fikrimizni amaliy misol bilan davom ettirsak. Shovot tumani, "Asavey" mahallasi A.Qahhor va Guliston ko'chalarida 2020-yil 20-iyuldan "Ichki yo'l" sifatida Obodonlashtirish boshqarmasi balansiga olingan. Ushbu ko'chadan I.Narmetov va boshqalar avtotransport vositalarida harakatlanib, yo'ldan foydalanib kelishgan. Biroq, Shovot tumani IIB YHXB katta inspektorining 2021-yil 12-iyuldagi 4187-sonli hamda "Asavey" MFY raisining murojaatiga asosan Shovot tuman hokimining 2021-yil 15-oktyabrdagi 83-12-177-Q/21-sonli qarori qabul qilinib, ushbu qaror bilan Shovot tumani "Asavey" mahallasidagi "A.Qahhor" va "Guliston" ko'chalarini tutashtiruvchi yo'lning ikkala tomoniga taqiqlovchi 3.18.1 (o'nga burilish taqiqlangan) va 3.18.2 (chapga burilish taqiqlangan) yo'l belgilari o'rnatilishiga ruxsat berilgan. Natijada, I.Narmetov, B.Nurmetov, X.Madaminov, B.Raximov, K.Ruzimov, A.Normetov, B.Matyusupov, Q.Bayjanov, G'.Abdullayev hamda X.Jabbarov sudga ariza bilan murojaat qilishib, Shovot tuman hokimining 2021-yil 15-oktyabrdagi 83-12-177-Q/21-sonli qarorini haqiqiy emas deb topishni so'rashgan. Urganch tumanlararo ma'muriy sudining 2022-yil 25-yanvardagi hal qiluv qarori bilan ariza qanoatlantirilgan (5-2201-2104/2215-sonli sud hujjati).

Bu misolda aytmoqchi bo'lgan fikrimiz hal qiluv qarorining moddiy huquq normalariga muvofiqligi haqida emas. Masala, Shovot tumani "Asavey" mahallasidagi "A. Qahhor" va "Guliston" ko'chalarini tutashtiruvchi yo'lning ikkala tomoniga qo'yilgan 3.18.1 (o'nga burilish taqiqlangan) va 3.18.2 (chapga burilish taqiqlangan) yo'l belgilari va bu belgilarning olib tashlanishidan kim manfaatdor, kimning manfaatiga zidligidadir.

Ushbu belgilarning o'rnatilishi kimning huquqlarini buzmoqda va olib tashlanishi kimning manfaatlariga daxl qiladi? Kimdir ushbu yo'ldan avtotransport vositasida harakatlanib, foydalanib keladi. Demak, yo'l belgisining qo'yilishi ularning huquqlarini buzadi.

Yana kimdir ushbu yo'l belgisining qo'yilishidan manfaatdor. Chunki, ushbu yo'lda transport vositasining harakatlanishi to'xtatilsa o'zi, farzandlari, yaqinlarining xavfsizligi ta'minlangan deb hisoblaydi.

Xo'sh, sudya ushbu misolda uchinchi shaxs sifatida ishga jalb etilishi lozim va shart bo'lgan manfaatdor shaxslar doirasini aniqlay oladimi?

Xulosa shuki, yo'q. Chunki, ushbu nizoning sudda ko'rilishi nafaqat Shovot tumani "Asavey" mahallasida istiqomat qiluvchi fuqarolarning huquqlariga, balki ushbu yo'l orqali transport vositasida harakatlanuvchi shaxslarning hamda piyodalarning manfaatlariga daxl qiladi. Nomuayyan shaxslar guruhini aniqlash imkoni esa yo'q.

Demak, sud ushbu ish doirasida obyektiv sabablarga ko'ra manfaatdor shaxslar doirasini aniqlay olmaydi va aniqlash imkoni bo'lmagan shaxslarni ishga jalb etish imkonsiz. Natijada, sud aniqlash imkoni mavjud bo'lgan shaxslarnigina uchinchi shaxs sifatida ishga jalb etadi. Xo'sh, ishga jalb etilmagan manfaatdor shaxs keyinchalik xabar topib sud hujjatiga nisbatan shikoyat bersa?

Albatta bu holda yuqorida aytganimizdek, taftish instansiyasi sudi tomonidan hal qiluv qarorining bekor qilinishiga va ishni yangidan ko'rish uchun apellyatsiya instansiya sudiga yuborilishiga sabab bo'ladi.

Xo'sh, yuqorida qayd etilgan nizo bo'yicha ishga jalb etilmagan manfaatdor shaxs xuddi shu talab bilan sudga murojaat qilsa? Javob oddiy. Nizo ayni bir shaxslar (ya'ni bu ish bo'yicha arizachi boshqa shaxs) o'rtasida bo'lmaganligi uchun sud ishni mazmunan ko'rib chiqishga majbur.

Shunday qilib, aynan shu qarorni haqiqiy emas deb topish talabi, agar arizachi boshqa shaxs, u oldingi ishni ko'rish jarayonida ishga jalb etilmagan bo'lsa, garchi nizo predmeti oldingi ishlarda muhokama qilingan taqdirda ham takror va takror mazmunan ko'rilaveradi. Bu albatta mantiqqa zid. Biroq, MSYutK talablari shuni taqozo etadi.

Bundan tashqari, amaliyotda shunday nizolar ham uchraydiki, unda ishda ishtirok etuvchi shaxslar soni ellik, yuz yoki undan ham ko'p bo'lishi mumkin (bunday ishlar nafaqat ma'muriy, balki iqtisodiy va fuqarolik ishlarida ham uchraydi). Bu esa sudning ish bo'yicha manfaatdor shaxslar doirasini aniqlash yoki ularni ish ko'rish vaqti va joyi haqida tegishli tartibda ogohlantirishning real imkonini bermaydi (masalan, aksiyadorlar soni 1000 dan oshiq bo'lganda, ishning ko'rilishi ularning huquqlariga bevosita daxl qiluvchi nizolar).

Bizning fikrimizcha, ushbu muammoni protsessual qonunga "Sud jarayoni haqida ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qilish" tartibini kiritish orqali hal etish mumkin.

"Sud jarayoni haqida ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qilish" shunday jarayon-ki, unga ko'ra ma'muriy ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soni deylik, 20 dan ortiq bo'lsa yoki nizoning sudda ko'rilishi aynan qaysi shaxslarning huquqlari va manfaatlariga daxl qilishini aniqlash imkoni bo'lmasa, sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarni, shuningdek boshqa manfaatdor shaxslarni sud jarayoni haqida ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qiladi.

Xuddi shunga o'xshash normalar chet davlatlarning protsessual qonunlarida belgilangan.

Bunga misol sifatida Germaniya Ma'muriy-protsessual kodeksining 56§-paragrafi[11]da belgilangan normalarni, Estoniya Respublikasi Ma'muriy-protsessual kodeksining 22, 23-moddalari[12]da qayd etilgan qoidalarni aytish mumkin.

O'z navbatida, ma'muriy sud ishlarini yuritish bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, protsessual qonunga "Sud jarayoni haqida ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qilish" normasini kiritish zarurligi (sudyalalar – 51,7 %, sud xodimlari – 33,3 %, boshqa kasb

vakillari – 81,8%) bo'yicha taklifni respondentlarning ko'pchilik qismi qo'llab quvvatlashgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, MSIYutKni "151-bobi. SUD JARAYONI HAQIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI ORQALI XABARDOR QILISH"- deb nomlanuvchi yangi bob bilan to'ldirish bilan to'ldirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Флексор Д.С. Отмена решений по просьбам третьих лиц, не участвовавших в деле. С.-Пб., 1894.С. 50.
2. Флексор Д.С. Отмена решений по просьбам третьих лиц, не участвовавших в деле. С.-Пб., 1894.С. 56-59.
3. Буцковский Н.А. Очерки судебных порядков // Буцковский Н. Очерки судебных порядков по Уставам 20 ноября 1864 года. С.-Пб., 1874. С. 142.
4. Guckelberger, Die Beiladung im Verwaltungsprozess, JuS2007, 436, 436 f.
5. Guckelberger, Die Beiladung im Verwaltungsprozess, JuS2007, 436, 437.
6. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi. - T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2021. 72-73 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi. - T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2021.
8. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi. - T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2021. 72-73 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi. - T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2021.
10. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi. - T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2021.
11. Административно-процессуальный кодекс Федеративной Республики Германия. Йорг Пуделька (изд.). Сборник законодательных актов по административному судопроизводству (3-е издание). –Москва: Инфотропик Медиа. 2018 г. С 217-218.
12. Административно-процессуальный кодекс Эстонской Республики. Йорг Пуделька (изд.). Сборник законодательных актов по административному судопроизводству (3-е издание). –Москва: Инфотропик Медиа. 2018 г. С 628-629.